

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSC.03/2025.27.12.T.21.01RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**NIYAZOVA MAVJUDA SAIDALIYEVNA**

**BIOKOMFORT OYOQ KIYIMLARINI ISHLAB CHIQRISH  
TEXNOLOGIYASINI TADQIQ ETISH VA ISHLAB CHIQRISH**

**05.06.03 - Teri, mo‘yna, poyabzal va teri-galantereya buyumlar texnologiyasi**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам**  
**Contents of Dissertation Abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on technical science**

**Niyazova Mavjuda Saidaliyevna**

Biokomfort oyoq kiyimlarini ishlab chiqarish texnologiyasini tadqiq etish va ishlab chiqish..... 3

**Ниязова Мавжуда Саидалиевна**

Исследование и разработка технологии производства биокomfortной обуви..... 21

**Niyazova Mavjuda Saidaliyevna**

Research and Development of Biocomfort Footwear Production Technology..... 39

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works ..... 42

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSC.03/2025.27.12.T.21.01RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**NIYAZOVA MAVJUDA SAIDALIYEVNA**

**BIOKOMFORT OYOQ KIYIMLARINI ISHLAB CHIQRISH  
TEXNOLOGIYASINI TADQIQ ETISH VA ISHLAB CHIQRISH**

**05.06.03 - Teri, mo‘yna, poyabzal va teri-galantereya buyumlar texnologiyasi**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4 PhD/T4271 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.titli.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Maksudova Umida Mirzaraximovna**

texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Maksumova Aytura Sitdikovna**

kimyo fanlari doktori, professor

**Musayev Sayfullo Safoyevich**

texnika fanlari nomzodi, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Namangan davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSC.03/2025.27.12.T.21.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2026 yil «24» aprel soat 1100 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent shahri, Shohjahon ko'chasi, 5. Tel: (+99871) 253-06-06; faks: (+99871) 253-36-17, e-mail: titlp\_info@edu.uz, TTVSI ma'muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).

Dissertatsiya bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 290 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Shohjahon-5, tel. (+99871) 253-06-06, 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «10» aprel kuni tarqatildi.

(2026 yil «10» aprel № 290 raqamli reyestr bayonnomasi).

**X.H.Kamilova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

**A.Z. Mamatov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, t.f.d., professor

**N.B.Mirzayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi bir martalik Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor



## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

### **Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.**

Jahonda harbiy xizmatchilar uchun mo'ljallangan maxsus poyabzal sanoati global mudofaa industriyasining strategik segmenti sifatida shakllanmoqda. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, ushbu bozor hajmi 3–8,3 milliard AQSH dollari diapazoniga yetgan bo'lib, yillik o'sish sur'ati 4,8–8,5 % atrofida bo'lishi prognoz qilinmoqda. Bunday o'sish dinamikasi, maxsus vazifali poyabzallarning yangi assortimentlarini olish texnologiyalarini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etishni o etadi. Shu jihatdan maxsus vazifali poyabzallarni ishlab chiqarish uchun yangi logiyalar hamda energiya-resurstejamkor jihozlardan foydalanish, past haroratli sharoitlarda foydalaniladigan qishki poyabzal sifat ko'rsatkichlari tizimida issiqlikni saqlash xususiyatlarini hisobga olish, yuqori samarali materiallar asosida ekohimoya xususiyatiga ega qishki poyabzallarni yaratish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda maxsus vazifali poyabzallarni ishlab chiqarishda tabiiy xomashyolardan oqilona foydalanish, himoyaviy poyabzallarning yangi assortimentlarini ishlab chiqishda yangi texnika va texnologiyalarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, maxsus poyabzal mahsulotlari uchun mo'ljallangan butlovchi materiallar orqali poyabzal konstruksiyalarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Bu borada, poyabzalning ergonomik xususiyatlarini o'rganish, issiqlik saqlovchi poyabzallarning taglik qismlariga qo'yiladigan talablarni tahlil qilish, materiallar majmualarining issiqlik qarshiligi ko'rsatkichlarini tahlil qilish, materiallarning issiqlik-fizik xususiyatlarini aniqlash, poyabzal uchun issiqlikni saqlovchi material majmualarining asosli tanlovini ishlab chiqish, poyabzalning ichki materiallari tuzilmasining issiqlik izolyatsion xususiyatlariga ta'sirini aniqlash, issiqlikni saqlovchi poyabzal taglik qismining tarkibiy materiallarini optimallashtirish, harbiy xizmatchilar uchun himoya xususiyatiga ega ekohimoya maxsus poyabzal konstruksiyasi va ishlab chiqarish texnologiyasini himoya materiallaridan foydalangan holda ishlab chiqishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda charm-poyabzal sanoatini modernizatsiyalash, mahalliy xomashyolarni chuqur qayta ishlash, sifatli, raqobatbardosh va eksportga yo'naltirilgan, import o'rnini bosuvchi tayyor poyabzal mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022 – 2026 yillarda yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "...charm-poyabzal sanoatini rivojlantirish va tarmoqda ishlab chiqarish hajmini 3 barobar oshirish" vazifalari belgilangan. "2026 yilga qadar hududlarda charm mahsulotlari, shuningdek, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishdagi bo'shliqlarni to'ldirish, poyabzal ishlab chiqarishni 2,8 barobar oshirish hisobiga charm mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish"<sup>1</sup> kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda mahalliy butlovchi materiallarni ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish hamda ularning xususiyatlarini tadqiq qilish orqali dunyo bozori talablariga javob beradigan butlovchi materiallar

---

<sup>1</sup>. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 22-yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

assortimentlarini yaratish va ularning ilmiy asoslarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-maydagi PQ-181-son “Charm-poyabzal, ipakchilik va gilamchilik tarmoqlarini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 11-oktabrdagi PQ-331-son “Charm-poyabzal va mo‘ynachilik sohalarida islohotlarni yanada jadallashtirish va sohaning eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 26-fevraldagi PQ-143-son “Charm-poyabzal va mo‘ynachilik sohalarida tayyor mahsulot ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining istiqbolli yo‘nalishlariga muvofiqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning II. «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Past haroratli sharoitlarda foydalaniladigan qishki poyabzal sifat ko‘rsatkichlari tizimida issiqlikni saqlash xususiyatlari muhim o‘rin egallagan. Issiqlikni saqlovchi poyabzal ishlab chiqarishning samarali usullarini o‘zlashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar xorijiy olimlar tomonidan ham keng o‘rganilgan. Xususan, bu yo‘nalishda A.B. Strong, G.A. Robinson (Buyuk Britaniya), Anna Maria Borreguero, A.K. Buldt (Avstraliya), H.W. Chang (Tayvan), V.T. Proxorov, T.M. Osina, V.E. Gorbachik va boshqalar (Rossiya), B.E. Dobnya, A.A. Nikitin, I.R. Tatarchuk, V.R. Lisak (Belorussiya), I.Sh. Abdullin, P.G. Ibragimov, G.Sh. Muzafarova (Tatariston)larning ilmiy ishlari e‘tiborga olingan.

Respublikamizda issiqlikni saqlovchi poyabzal uchun tarkibiy (komplektlovchi) materiallarni yaratish bo‘yicha tadqiqotlar U.M. Maksudova, M.U. Ilhamova, A.S. Maxsumova, N.B. Mirzayev, B.B. Ahmedov va boshqa olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

Issiqlikni saqlovchi poyabzal hamda uning tarkibiy qismlarini ishlab chiqish sohasida olib borilgan ko‘plab tadqiqotlarga qaramay, mahalliy xomashyodan tayyorlangan yuqori samarali materiallar asosida ekohimoya xususiyatiga ega qishki poyabzal yaratish muammosi hanuzgacha to‘liq hal etilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Mazkur ilmiy tadqiqot Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq amalga oshirilgan bo‘lib, u A-3-16 – “Himoya maxsus poyabzallari uchun issiqlik izolyatsion materiallar majmuasini tadqiq etish, ishlab chiqish va joriy etish” hamda OT-F-41 – “Charm buyumlar ishlab chiqarish uchun import o‘rnini bosuvchi polimer materiallar yaratish asoslari” nomli ilmiy loyihalar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Respublikaning qorli va tog‘li hududlarida foydalanishga mo‘ljallangan, qurolli kuchlar tuzilmalarida xizmat qiluvchi xodimlar uchun biokomfort maxsus poyabzal yaratish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

poyabzalning qulayligini ta'minlovchi ergonomik xususiyatlarini o'rganish;  
issiqlik izolyatsiyali poyabzalning patak qismlariga qo'yiladigan konstruktiv-  
texnologik xususiyatlar va talablarni tahlil qilish;  
materiallar paketlarining issiqlik qarshiliklarini tahlil qilish;  
poyabzal materiallarining issiqlik-fizik xususiyatlarini statsionar issiqlik  
o'tkazuvchanlik usuli orqali aniqlash;  
poyabzal uchun materiallar paketlarining issiqlikdan himoyalash  
xususiyatlarini asosli tanlash usulini ishlab chiqish;  
poyabzal astar materiallari tuzilmasining ularning issiqlikdan himoyalash  
xususiyatlariga ta'sirini aniqlash;  
issiqlik izolyatsiyali poyabzal taglik bog'lami uchun butlovchi materiallarning  
issiqlikdan himoyalash xususiyatlarini optimallashtirish;  
himoya xususiyatiga ega butlovchi materiallardan foydalangan holda harbiy  
xizmatchilar uchun ekologik himoyalovchi maxsus poyabzal konstruksiyasi va ishlab  
chiqarish texnologiyasini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida qurolli kuchlarda xizmat qilayotgan harbiylar  
uchun mahalliy xomashyoga asoslangan issiqlik saqlovchi patakdan foydalangan  
holda ekohimoyali maxsus poyabzal olingan.

**Tadqiqotning predmeti** qurolli kuchlarda xizmat qilayotgan harbiylar uchun  
mo'ljallangan biokomfort ekohimoya xususiyatiga ega maxsus poyabzal  
konstruksiyasini ishlab chiqish usullari va vositalari, shuningdek, ularni yaratishda  
innovatsion ishlab chiqarish texnologiyalaridan foydalanish jarayonlaridir.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot ishida komplektlovchi materiallar va  
poyabzalning fizik-mexanik hamda gigiyenik xususiyatlarini o'rganish uchun  
standart va nostandart usullar, shuningdek, tajriba (eksperiment)ni rejalashtirish,  
eksperimental natijalarni qayta ishlash va tahlil qilishda matematik statistika usullari  
qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

butlovchi materiallarning issiqlik qarshiligini  $0,586 \text{ m}^2 \cdot ^\circ\text{C}/\text{Vt}$  gacha oshirishga  
imkon yaratuvchi, oyoq panjasining issiqlik himoyasini samarali taminlovchi  
poyabzal tag qismi uchun ikki qavatli patak konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

tashqi muhit haroratiga bog'liq holda poyabzal tag qismi butlovchi materiallar  
qalinligining oshish qonuniyatlari aniqlangan xamda qishki mavsumning to'rt davri  
uchun ( $5 \text{ }^\circ\text{C}$  dan  $65 \text{ }^\circ\text{C}$  gacha) qalinlik chegaralari belgilab olingan;

patak bog'lami materiallarini optimallashtirish hisobiga qishki etiklarning  
issiqlikdan himoya qilish xususiyatlarini oshirish qonuniyatlari tajribani matematik  
rejalashtirish usuli asosida ishlab chiqilgan, namat tarkibidagi sof qo'y junining  
tarkibi hal qiluvchi ta'sir ko'rsatishi, qalinligining oshishi esa issiqlik izolatsiyasi  
samaradorligining qo'shimcha o'sishini ta'minlashi aniqlangan;

ekologik va yuqori issiqlik saqlash xususiyatiga ega bo'lgan butlovchi  
materiallar asosida etik konstruksiyasi takomillashtirilgan va poyabzalning issiqlik  
o'tkazmaslik xususiyati hamda oyoq panjasining ergonomik himoyasini oshishi  
aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Baland qo'ng'li erkaklar etiklari konstruksiyasi hamda poyabzalning yuqori qismini tortilgan holda polimer kompozitsiyalarni erkin quyish usuli bilan ishlab chiqarish bo'yicha texnologik reglament ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalari asosida yaratilgan etiklar konstruksiyasining qorli va past haroratli sharoitlarda tajribaviy sinovdan o'tkazilishi, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining "Chimyon" tog' o'quv-trening markazida hamda O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining "Qamchiq" dovonidagi sinov maydonida o'tkazilgan amaliy kiyilish (ekspluatatsion) sinovlari dissertatsion tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyatini to'liq tasdiqlagan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** nazariy va eksperimental tadqiqotlar natijalari asosida olingan xulosalar hamda ilmiy asoslangan dalillar, shuningdek, ishlab chiqarish sinovlarining ijobiy natijalari va maxsus poyabzalning tajribaviy kiyilish (ekspluatatsion) sinovlari bo'yicha tuzilgan dalolatnomalar bilan tasdiqlanadi.

#### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati - baland qo'ng'li erkaklar etiklari konstruksiyasini tanlashning ilmiy asoslanganligi, shuningdek, harbiy xizmatchilar uchun mo'ljallangan issiqlik izolyatsion (issiqlik saqlovchi) poyabzallarni ishlab chiqarish bo'yicha texnik talablarning ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa baland qo'ng'li, issiqlikni saqlash xususiyatlari yaxshilangan va yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega yangi poyabzal konstruksiyalarining ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

#### **Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.**

Qurolli kuchlar tuzilmalarida xizmat qiluvchi xodimlar uchun mo'ljallangan biohimoya xususiyatiga ega qishki issiqlik saqlovchi maxsus poyabzallarni ishlab chiqish bo'yicha o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida:

yangi konstruksiyadagi poyabzal ishlab chiqarish bo'yicha texnologik reglament "GO'ZAL BIZNES PLYUS" korxonasi joriy qilingan (2025-yil 3-oktabrdagi "Uzcharmsanoat" Uyushmasining 01-2677 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada baland qo'ng'li qishki etik konstruksiyasiga asoslangan holda, harbiy xizmatchilar uchun maxsus himoyalovchi, import o'rnini bosuvchi poyabzal ishlab chiqirish imkoniyati yaratilgan;

past haroratli sharoitlarda ekspluatatsion xususiyatlarni baholash maqsadida, ishlab chiqilgan issiqlik saqlovchi etiklar O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining "Chimyon" tog' o'quv-trening markazida (2025-yil 24-martdagi Dalolatnoma) va O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining "Qamchiq" dovonidagi sinov maydonida (2025-yil 14-martdagi Dalolatnoma) qorli hududlarda tajribaviy harbiy sinovlardan muvaffaqiyatli o'tkazilgan. Natijada maxsus poyabzal issiqlik saqlash ko'rsatkichlari 15% gacha oshirilib, mahalliy korxonalarda ichki va tashqi bozorga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mahalliy xomashyodan tayyorlangan biohimoya materiallardan foydalangan holda ekohimoya xususiyatiga ega yangi maxsus poyabzal konstruksiyalarini yaratish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar

natijalari, jahon standartlari talablariga javob beruvchi yangi avlod maxsus poyabzallar konstruksiyalarini ishlab chiqish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 29 ta ilmiy ish chop etilgan, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan 10 ta maqola ilmiy jurnallarda, 4 ta maqola xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalar bo'limlaridan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirishda** o'tkazilgan ilmiy izlanishlarning dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, uning maqsad va vazifalari aniqlangan, shuningdek, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflangan. Ishda mazkur mavzuning O'zbekiston Respublikasida fan va texnika sohasining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Olingan ilmiy natijalar ishonchliligi, ilmiy maqolalar va nashr etilgan tadqiqot natijalari ro'yxati bilan tasdiqlangan. Bundan tashqari, ishda dissertatsiyaning tuzilishi va tarkibi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **birinchi bobi** "Adabiyotlar tahlili" deb nomlanib, unda turli past haroratli sharoitlarda foydalaniladigan poyabzal turlarining konstruktiv xususiyatlari tahlil qilingan hamda poyabzal komplektlovchi materiallarining issiqlik qarshiligiga qo'yiladigan talablar aniqlangan.

Har bir poyabzal turi ma'lum meteorologik sharoit ko'rsatkichlari oraliqlarida foydalanish uchun mo'ljallangan. Shu tamoyil poyabzalning sovuq mavsumda kiyiladigan assortimentini hisoblashning asosini tashkil etadi.

O'tish davri uchun musbat va manfiy haroratlarning almashinuvi (+5,0 dan -4,9 °C gacha) sharoitida poyabzal materiallarining umumiy issiqlik qarshiligi 0,08 – 0,28 m<sup>2</sup>·°C/W dan kam bo'lmasligi kerak. Teridan tayyorlanadigan asosiy poyabzal turlariga botinkalar, etikchalar va yarim etiklar kiradi.

Birinchi sovuq davr uchun, asosan, quruq grunt sharoitlari xosdir. Atrof-muhit haroratining o'zgarishi oralig'i -5,0 dan -19,9 °C gacha, poyabzal materiallari majmuasining umumiy issiqlik qarshiligi 0,12 – 0,32 m<sup>2</sup>·°C/W oralig'ida bo'lishi kerak. Ushbu davr uchun botinkalar, yarim etiklar va etiklarga xos.

Ikkinchi sovuq davr yanada og'irroq iqlim sharoitlari bilan tavsiflanadi – atrof-harorat past bo'lib, shamol ta'siri kuzatiladi. Bu davr uchun xarakterli poyabzal turlari xrom oshlangan charm ustki qismliligi, qalin g'ovak rezina taglikli yarim etiklar va etiklar hisoblanadi. Atrof-muhit harorati -20,0 dan -34,9 °C gacha, poyabzal materiallari majmuasining umumiy issiqlik qarshiligi esa 0,31 – 0,46 m<sup>2</sup>·°C/W oralig'ida bo'lishi lozim.

Uchinchi sovuq davr past harorat va kuchli shamollar bilan ajralib turadi, bu sharoitda insonning ochiq havoda uzluksiz bo'lish vaqti cheklanadi. Ushbu davrda atrof-muhit harorati -35,0 °C dan -49,9 °C gacha o'zgaradi. Poyabzal ustki qismi

materiallari uchun issiqlik qarshiligi  $0,27-0,39 \text{ m}^2 \cdot \text{°C}/\text{W}$ , pastki qismini tashkil etuvchi materiallar uchun esa  $0,35-0,55 \text{ m}^2 \cdot \text{°C}/\text{W}$  oralig'ida bo'lishi kerak.

To'rtinchi sovuq davr juda past harorat va kuchsiz shamol yoki shamolsiz sharoitlar bilan xarakterlanadi. Bunday sharoitlarda insonning ochiq havoda bo'lish vaqti eng qisqa bo'ladi. Atrof-muhit harorati  $-50,0$  dan  $-65,9 \text{ °C}$  gacha bo'lib, poyabzal materiallari majmuasining umumiy issiqlik qarshiligi  $0,42 - 0,65 \text{ m}^2 \cdot \text{°C}/\text{W}$  oralig'ida bo'lishi lozim.

Poyabzal komplektlovchi materiallari qalinligining qishki kiyish davrlariga bog'liq holda o'zgarishini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatdiki, atrof-muhit haroratining  $-5 \text{ °C}$  dan  $-65 \text{ °C}$  gacha pasayishi bilan birgalikda poyabzalda ishlatiladigan materiallar qalinligiga bo'lgan talab 1-davrdan 4-davrga qadar ortib boradi.

Shunday qilib, turli turdagi poyabzallar konstruksiyasi, biriktiriluvchi materiallar qalinligi va ularning issiqlik qarshiligi bo'yicha o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, atrof-muhit haroratining  $+5 \text{ °C}$  dan  $-65 \text{ °C}$  gacha o'zgarishi poyabzal materiallari uchun qalinlik va mos ravishda, issiqlik qarshiligi ko'rsatkichlarini 1-davrdan 4-davrgacha bosqichma-bosqich oshirishni talab etadi. Bu esa poyabzalning qulay kiyilishini (komfort darajasini) ta'minlash uchun zarur hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **ikkinchi bob** "Poyabzal materiallari majmualarining issiqlikni saqlovchi xususiyatlarini asosli tanlash usullari" deb nomlanib, unda poyabzalning issiqlikni saqlovchi xususiyatlarini aniqlashning analitik usuli asoslab berilgan. Mazkur usul oyoq yuzasidan tashqi muhitgacha bo'lgan issiqlik o'tishining umumiy qarshiligini poyabzalning konstruktiv elementlari orqali aniqlashga asoslanadi.

Turli konstruksiyadagi poyabzallarning issiqlikni saqlovchi xususiyatlarini taqqoslash maqsadida, komplektlovchi materiallarning to'liq umumiy issiqlik qarshiligi qiymatini aniqlash metodikasi ishlab chiqilgan va asoslab berilgan. Shuningdek, ushbu bobda komplektlovchi materiallarning fizik-mexanik xususiyatlarini o'rganish usullari, amaldagi tegishli DAST talablariga muvofiq ravishda keltirilgan. Ishda, shuningdek, patent tadqiqotlari, sotsiologik tadqiqotlar, tajriba (eksperiment)ni rejalashtirish va matematik-statistik ma'lumotlarni qayta ishlash usullari qo'llanilgan.

Issiqlikni saqlash xususiyatlari va konstruksiyasi jihatidan optimal bo'lgan issiqlik izolyatsiyali oyoq kiyimini ishlab chiqish maqsadida, **dissertatsiyaning uchinchi bobida** oyoq kiyimi tarkibiga kiruvchi materiallarning issiqlikni saqlash xususiyatlari o'rganildi hamda qo'yma patak konstruksiyasiga qo'yiladigan talablar ishlab chiqildi.

Ichki taglik oyoq kiyimida to'g'ridan to'g'ri oyoq kaftining pastki yuzasi ostida joylashadi. Uning sathi teginishda yoqimli bo'lishi, terini tirnash xususiyatidan saqlashi, sirpanmasligi, shaklini yo'qotmasligi va terning namligini yaxshi singdirishi lozim. Taglik ishlab chiqarishda ishlatiladigan materiallar inson salomatligi uchun zararli (toksik) kimyoviy birikmalarni va mikroorganizmlarning rivojlanishiga sabab bo'ladigan moddalarni o'z ichiga olmasligi kerak.


Ishlab chiqilgan kompozitsion to‘qilmagan himoya taglik materiali qatlamlaridan biri - bu yung tolalarini valkalash (yopishtirish) usuli bilan tayyorlangan kigizdir. Kigiz ishlab chiqarish uchun asosiy xomashyo sifatida turli xil yung turlari qo‘llaniladi.

Ishlab chiqilgan yungni dastlabki qayta ishlash (YDQI) texnologiyasining o‘ziga xos jihati shundan iboratki, Xitoyning “Singan” firmasiga tegishli yuvish uskunalari yungni yuqori sifatda yuvishni ta‘minlaydi, suyuqlik sathini barqaror ushlab turishni talab qilmaydi hamda MP-5SH, SP-1 va PPSHV tipidagi mashinalarga nisbatan ixcham o‘lchamlarga ega.

Adabiyot manbalari tahlili va o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari asosida qatlamli to‘qilmagan material (kigiz) asosini tashkil etuvchi tolali yarimtayyor mahsulot sifatida yarim dag‘al qo‘y yungi tanlandi. Tolali yarim tayyor mahsulot turi - taralgan lenta, tolalarining o‘rtacha yo‘g‘onligi 14,5–60 mkm, uzunligi 30 mm va undan ortiq, sifat sinfi esa 60 deb belgilandi.

O‘rganilgan tajriba-tahliliy kigiz to‘qimasini qo‘y yungidan olish texnologiyasi ishlab chiqilib, u ishlab chiqarish sharoitida “SOCHAVSKIY PROCESSING” MCHJ korxonasida sinovdan o‘tkazildi.

Nam holatda valkalash (valyaniye) jarayonining mohiyati shundaki, sovunli suv eritmasi qo‘llanilganda tolalar orasidagi ishqalanish kamayadi, bu esa ularning o‘zaro chirmashuvi va bir-biriga yopishishiga yordam beradi. Valkalash jarayonida avval yunga issiq sovunli suv bilan ishlov beriladi, so‘ngra sovuq suv bilan chayiladi. Shundan so‘ng hosil bo‘lgan kigiz matosi tekislanadi va quritiladi.



**1-rasm. Mikroskop ostida tahlil qilingan tolali xolst (mato) namunalari ning morfologik ko‘rinishi**

Barcha tolali matolar (xolstar) tolalarning joylashish yo‘nalishiga, ya‘ni ularning ishlab chiqarish usuliga ko‘ra bir necha turga bo‘linadi. Ular orasida: tolalari uzunlik bo‘ylab yo‘naltirilgan holatlar (1a-rasm), tolalari burchak ostida qatlam-qatlam joylashtirilgan, o‘zaro kesishuvchi holatlar (1b-rasm) hamda tolalari bir yo‘nalishda va burchak ostida joylashtirilgan kombinatsiyalangan holatlar (1v-rasm) farqlanadi.

Keyingi tadqiqotlar uchun tolalar kombinatsiyalangan yo‘nalishda joylashtirilgan kigiz matolar (1v-rasm) tanlab olindi. Bunday joylashuv kigiz materialining zarur zichligini va jun tolalarining mustahkam o‘zaro birikishini ta‘minlaydi.

Qishki oyoq kiyim konstruksiyasi va issiqlikni saqlash xususiyatlari bo‘yicha optimal tarkibiy materiallarni aniqlash maqsadida ushbu tadqiqotda oyoq kiyimi astarlik materiallarining tuzilishi ularning issiqlik izolyatsion xususiyatlariga

ko'rsatadigan ta'siri o'rganildi.

Tadqiqotning birinchi bosqichida to'rtta kigiz namunasi tanlab olindi. Ularning barchasi qo'y yungidan tayyorlangan bo'lib, qalinligi turlicha, ammo ishlab chiqarish jarayonida sintetik tolalar qo'shilgan. To'qilmagan mato igna bilan teshib birlashtirish (ignaprobivka) usuli orqali tayyorlandi. Ishlab chiqarishda xomashyo sifatida yarim dag'al, notekis tarkibli qo'y yungi - ya'ni paxmoq, o'tuvchi tolalar va tarkibiga poliestertolasi ham qo'shildi. Ishlatilgan yungning o'rtacha tolasi 32 mikronni tashkil etdi.

Tadqiqot davomida kigiz materialining quyidagi fizik xususiyatlari o'rganildi: yuzaki zichligi, havo o'tkazuvchanligi, gigroskopikligi, qalinligi hamda issiqlikni saqlash (termomustahkamlik) ko'rsatkichi. Tadqiqot ishlari Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti qoshidagi o'quv-sinov laboratoriyasi bazasida olib borildi. O'lchovlar quyidagi asbob-uskunalar yordamida bajarildi: Yuzaki zichlik – GX-400 tarozisida aniqlangan, Havo o'tkazuvchanlik – "AR-360 SM" qurilmasida o'lchangan, Issiqlikni saqlash qobiliyati – "AW-2" asbobida aniqlangan, gigroskopiklik – DAST 3816–81 standartiga muvofiq eksikatoridan foydalangan holda o'lchandi.



1-namunadagi kigiz tarkibi va qalinligi ko'rsatkichlari: poliestertolasi miqdori - 10%, qalinligi - 2,9 mm.



2-namunadagi kigiz tarkibi va qalinligi: poliestertolasi miqdori - 20%, qalinligi - 3,2 mm.



3-namunadagi kigiz tarkibi va geometrik parametrlari: poliestertolasi - 30%, qalinligi - 4,5 mm.



4-namunadagi kigiz tarkibi va fizik parametrlari: poliestertolasi - 40%, qalinligi - 6,5 mm.

## **2-rasm. Kigiz namunalarning ko'ndalang kesimdagi tuzilma ko'rinishlari**

Kigizning qalinligi va poliestertolasi miqdori ortishi bilan uning yuzaki zichligi hamda issiqlikni saqlash xususiyatlari oshgani, biroq havo o'tkazuvchanlik ko'rsatkichi kamaygani kuzatildi. Issiqlik izolyatsiyasi jihatidan optimal astarlik materiallarni asosli tanlash maqsadida kigiz va sun'iy mo'yna materiallarining issiqlik izolyatsion xususiyatlari bo'yicha tadqiqot o'tkazildi. Oyoq kiyimining qishki modellarida qo'llaniladigan astarlik materiallar, ya'ni kigiz, mo'ynali qo'y terisi va sun'iy mo'ynaning issiqlikni saqlash xususiyatlarini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari (3-rasmda keltirilgan) quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi.


Astar sifatida ishlatiladigan materiallar tarkibidagi toza yung miqdori va material qalinligi ularning issiqlikni saqlash (issiqlik himoya) ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Material qanchalik qalin bo'lsa, uning issiqlikni saqlash xususiyati shunchalik yuqori bo'ladi; aksincha, tarkibida polimer tolalar miqdori

ortishi bilan issiqlik o'tkazuvchanlik darajasi pasayadi.

1-jadval

**Yarimdag'al qo'y yungidan tayyorlangan kigiz matosining fizik-texnik xususiyatlari**

Ko'rsatkich nomi	Standart (DAST/ISO)	1-namuna	2-namuna	3-namuna	4-namuna
Kigiz tarkibidagi poliester tolasi miqdori, %	–	10,0	20,0	30,0	40,0
Qalinligi, mm	DAST 12023–2003	2,9	3,2	4,5	6,5
Yuzaki zichligi, g/m <sup>2</sup>	DAST 3811–78	388,3	403,1	687,1	732,0
Havo o'tkazuvchanligi, sm <sup>3</sup> /sm <sup>2</sup> ·s	ISO 9237–2013	220,8	203,0	172,6	119,6
Issiqlikni saqlash qobiliyati, %	GB/T 11048–1989	23,7	38,0	53,0	57,0
Gigroskopikligi, %	DAST 3816–81	3,55	3,86	5,53	6,28



**3-rasm. Astar sifatida qo'llaniladigan kigiz va sun'iy mo'yna materiallarining issiqlik o'tkazuvchanlik ko'rsatkichlari bo'yicha tajriba natijalari**

O'tkazilgan tajriba natijalariga ko'ra, yuzaki zichlik ko'rsatkichi material tarkibi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning qalinligiga va issiqlik bilan ishlov berish haroratiga ham bevosita bog'liqligi aniqlangan.

Kigiz qalinligi ortishi bilan uning havo o'tkazuvchanlik darajasi kamayadi, biroq gigroskopiklik (namlikni yutish qobiliyati) ko'rsatkichi ortadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, qalinligi 3,0 ÷ 3,5 mm bo'lgan va tarkibida 80–85% qo'y yungi mavjud bo'lgan sun'iy mo'yna hamda kigiz materiallari issiqlikni saqlash xususiyatlari jihatidan deyarli bir xil natijani ko'rsatgan - ularning issiqlik izolyatsion

samaradorligi 72,2% dan 85% gachani tashkil etdi.

**Kigizning issiqlikni saqlash xususiyatlarini optimallashtirish.** Issiqlik izolyatsiyasi va konstruktiv tuzilishi jihatidan optimal patak tizimiga ega bo'lgan issiqlik saqlovchi oyoq kiyimini ishlab chiqish maqsadida, matematik tajriba rejalashtirish usuli asosida kigizning issiqlikni saqlash xususiyatlarini optimallashtirish ishlari amalga oshirildi. Optimallashtirish jarayonida kigizning issiqlikni saqlash samaradorligi uchta asosiy omilga bog'liq holda o'rganildi: material qalinligi, kigiz tarkibidagi jun tolalarining miqdori, ishlov berish jarayonida qo'llanilgan suv harorati. Ushbu omillar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni matematik modellashtirish orqali kigizning issiqlik himoya xususiyatlarini yaxshilash uchun optimal parametrlar aniqlangan.

## 2-jadval

### Kigizning issiqlikni saqlash xususiyatlarini optimallashtirishda o'rganilgan omillarning darajalari va ularning variatsiya (o'zgarish) oraliqlari

Omillar nomi	Belgilanishi	Omil darajalari			O'zgarish oraliqlari
		-1	0	+1	
Kigiz qalinligi, mm	$X_1$	2,0	4,0	6,0	2,0
Kigiz tarkibidagi jun miqdori, %	$X_2$	50,0	70,0	90,0	20,0
Kigizga ishlov berish jarayonidagi suv harorati, °C	$X_3$	60,0	78,0	96,0	18,0

To'liq faktorial tajribaning rejalashtirish matritsasi va natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

Optimallashtirish parametri sifatida -Y materialning issiqlikni saqlash qobiliyati ko'rsatkichi qabul qilindi. Ushbu ko'rsatkich "AW-2" asbobida, xalqaro standartlar ASTM D1518-85 va JIS L-1089 talablariga, shuningdek, GB/T110-48 metodikasiga muvofiq aniqlangan.

Kigizning issiqlikni saqlash xususiyatlari uning tarkibidagi toza jun tolalari miqdori va kigizdan tayyorlangan ichki taglik qalinligi bilan o'zaro bog'liq bo'lib, bu munosabat quyidagi tenglama orqali ifodalanadi:

$$Y = 5,53 + 0,254X_1 + 0,24X_2 - 0,17X_3 - 0,244X_1^2 + 0,116X_1^3 + 0,23X_2^2 - 0,61X_2^3$$

Taqdim etilgan tadqiqot natijalarining ikkinchi tartibli polinom yordamida ifodalangan modelga mosligi (adekvatligi) gipotezasi Fisher mezon (F-kriteriy) yordamida tekshirildi.

$$F_{\text{hisob.}} = 1,142 ; F_{\text{jadval}} = 3,89 \quad f_1 = 4 \quad f_2 = 8 ; F_{\text{hisob.}} < F_{\text{jadval}}$$

Chiziqli modelning adekvatligi haqidagi gipoteza qabul qilinadi, chunki hisoblangan F-mezon qiymati 95 % ishonchlilik darajasi uchun jadval bo'yicha berilgan qiymatdan oshmaydi.

Shunday qilib, kigizning issiqlikni saqlash xususiyatlariga eng sezilarli ta'sir etuvchi omil - bu kigiz tarkibidagi toza qo'y yungi miqdori ( $X_2$ ) hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, jun tolalari miqdori ortgan sari issiqlikni saqlash ko'rsatkichi ham ortadi. Shu bois, keyingi tajribalarda kigiz tarkibidagi qo'y yungi miqdori 90 % deb qabul qilindi. Keyingi muhim omil sifatida  $X_1$  - kigizning qalinligi aniqlangan. Qalinlik oshishi bilan kigizning issiqlikni saqlash darajasi ham oshadi. Shunga ko'ra, keyingi tadqiqotlarda kigiz taglik qalinligi 6 mm etib belgilandi.

Uchinchi omil -  $X_3$ , ya'ni kigizga ishlov berishdagi suv harorati - issiqlikni saqlash xususiyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi.

**3-jadval**

**Kigizning issiqlikni saqlash xususiyatlarini o'rganish bo'yicha to'liq faktorial tajriba rejalashtirish matritsasi va tajriba natijalari.**

Tajriba raqami	$X_1$	$X_2$	$X_3$	$X_1X_2$	$X_1X_3$	$X_2X_3$	$X_1X_2X_3$	Issiqlikni saqlash qobiliyati $Y$ , %
1	+	+	+	+	+	+	+	92,3
2	+	-	+	-	+	-	-	76,4
3	+	+	-	+	-	-	-	85,2
4	+	-	-	-	-	+	+	56,5
5	-	+	+	-	-	+	-	68,3
6	-	-	+	+	-	-	+	53,8
7	-	+	-	-	+	-	+	70,3
8	-	-	-	+	+	+	-	45,4

**4-jadval**

**Issiqlik izolyatsiyali oyoq kiyimi pastki qismi uchun materiallar to'plamining issiqlik qarshiligi ko'rsatkichlari**


№	Oyoq kiyimi pastki qismi materiallari	Material qalinligi, mm	Issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti $\lambda$ , $W/(m \cdot ^\circ C)$	Issiqlik qarshiligi $R$ , $m^2 \cdot ^\circ C/W$
<b>1</b>	Mo'ynali qo'y terisi	2,52	0,060	0,042
	Karton (ichki taglik)	1,2	0,012	0,010
	Charmkarton (asosiy taglik)	2,0	0,091	0,022
	Rezina (zichligi 0,89–0,92 $g/sm^3$ )	6,5	0,305	0,185
				<b><math>\Sigma = 0,259</math></b>
<b>2</b>	Sun'iy mo'yna (80% qo'y yungi + 20% poliester)	3,0	0,049	0,061
	Karton (ichki taglik)	1,2	0,012	0,010
	Charm (taglik materiali)	2,5	0,111	0,023
	Termoelastoplast	15,0	0,175	0,086
				<b><math>\Sigma = 0,170</math></b>
<b>3</b>	Dag'al junli kigiz	3,5	0,078	0,045
	Karton (ichki taglik)	1,2	0,120	0,010
	Tekson (asosiy taglik)	2,8	0,115	0,024
	G'ovak rezina	15,0	0,091	0,165
				<b><math>\Sigma = 0,244</math></b>
<b>4</b>	Paxta asosidagi sun'iy mo'yna	2,88	0,054	0,051
	Karton (ichki taglik)	1,2	0,120	0,010
	Charmkarton (asosiy taglik)	2,0	0,090	0,022
	Poliuretan (zichligi 0,72–0,80 $g/sm^3$ )	15,0	0,078	0,192
				<b><math>\Sigma = 0,275</math></b>

5	Yarimdag'al kigiz	2,9	0,073	0,039
	Karton (ichki taglik)	1,2	0,120	0,010
	Tekson (asosiy taglik)	2,8	0,115	0,024
	Rezina (zichligi 0,7–0,9 g/sm <sup>3</sup> )	15,0	0,091	0,165
				<b>Σ = 0,238</b>
6	Trikotaj asosidagi sun'iy mo'yna	3,0	0,072	0,041
	Charmkarton (asosiy taglik)	2,0	0,090	0,022
	Karton (ichki taglik)	1,2	0,120	0,010
	Poliuretan (zichligi 0,62–0,70 g/sm <sup>3</sup> )	15,0	0,078	0,192
				<b>Σ = 0,265</b>

Qishki oyoq kiyimlarida an'anaviy tarzda qo'llaniladigan materiallar to'plamlarining issiqlik qarshiligini o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, oyoq kiyimi pastki qismi uchun turli materiallardan tuzilgan to'plamlarning issiqlik qarshiligi qiymatlari 0,23–0,32 m<sup>2</sup>·°C/W diapazonida bo'lib, bu –5,0 ÷ –19,9 °C harorat oralig'ida kiyishning birinchi davri uchun me'yoriy talablarga javob beradi.

Biroq ushbu materiallar to'plamlari –25 °C va undan past haroratlarda uzoq muddatli kiyish uchun yetarli darajada issiqlik himoyasini ta'minlamaydi, ya'ni sovuq sharoitlarda oyoqning termik qulayligi buziladi.

